

BOSHLANG'CH SINIF O'QUVCHILARIGA TARBIYA BERISHDA MUSTAQIL O'QISH JARAYONIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Abdumanapova Sanobar Muhidin qizi

Namangan Kimyo xalqaro universitetida 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarga tarbiya berish jarayoni hamda ushbu jarayonda mustaqil o'qish jarayonlaridan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, maktab, dars, o'qish jarayoni, mustaqil o'qish, jamiyat, o'quvchi.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo'lgani singari ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi, jumladan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Jamiyatning ma'naviy salomatligini ta'minlashda ta'lim-tarbiya o'chog'i bo'lgan maktab muhim rol o'ynaydi.

Yosh avlod shaxsida komil insonga xos fazilatlarni shakllantirishda boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarining mazmunini va tashkil etish shakllarini zamon talablari darajasiga ko'tarish, hozirgi "tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda" yashayotgan, axborotlar oqimining ko'pligi ta'sirida anchayin dunyoqarashi keng kichik yoshdagi bolalar ehtiyojini hisobga olib, ularga yondashish zarur. Yuksak texnologiyalar davrida, "hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas"ligidan kelib chiqib, kompyuter, televideniylarning keng ommalashuvi sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi. Har qanday holatda ham bolaga kitob o'qishni, kitobni tanlab o'qishni, unga to'g'ri munosabat bildira olishni o'rgatish sinfdan tashqari o'qish darslarining vazifasidir.

Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir. Har bir ustoz, har bir pedagog yosh avlodni ko'p asrlik milliy madaniyatimiz va tariximiz, shuningdek zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida tarbiyalash ishiga o'z hissasini qo'shishi, samarali maktab poydevorini qurishi, mustahkamlashi lozim. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflardao'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonigamohirona tadbiiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

S. Yaminovning "O'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o'qitish usulidan foydalanish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqotida adabiy ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida, ya'ni ta'limning noan'anaviy shakllaridan

foydalanish asosida o'quvchilarni faolligini oshirish hamda ssenariyli o'qitish yo'llari va usullari yoritib berilgan. Biroq Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha maxsus keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Mustaqil o'qishning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni o'rash o'rgatiladi, „ Ertaklar bayrami, „ Ifodali o'qish tanlovi“ o'tkaziladi.

Mustaqil o'qishdan tashqari o'qish darslarida badiiy asarlarni o'rganish jarayoniga interfaol usullarni tadbiiq etish orqali matn mazmunini o'zlashtirishni, badiiy tilini tahlil qilish, badiiy vositalarni o'rganish, asar mazmunini qayta hikoyalashga o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish va fikrini uslubiy jihatdan to'g'ri va emotsional jihatdan ta'sirchan ifodalashga o'rgatish, "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslari samaradorligini ta'minlovchi interfaol metodlardan foydalanish, o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash juda muhimdir. Jumladan, sinfdan tashqari o'qish darslarida uyushtiriladigan o'yinlar ko'ngilochar mashg'ulot bo'lmasdan, ta'limiy xarakterga ega bo'lishi, o'rganilayotgan asar mavzuni ni o'zlashtirishga, asar yuzasidan ta'limiy va tarbiyaviy xulosa chiqarishga qaratilishi lozim. Interfaol usullardan o'rinli, O'quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan qolda foydalanish lozim. Rixsixon Ubayxo'jaeva "Ilg'orpedagogik texnologiyaning juda ko'p usullari mavjud bo'lib, boshlang'ich sinf ona tili darslarida ular seminar darslar, konferentsiya darslari, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "BBB"(Bilar edim, bilishni xohlayman, bilib oldim), "Debatlar", "Tanqidiy tafakkur" va boshqalarni ko'rsatadi. Bu usullardan o'quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanilmas, qilingan ishlar ishlar samara bermaydi.

Noan'anaviy shaklda tashkil etilayotgan mustaqil o'qish tashqari o'qish darslari o'quvchilarning jamoa bo'lib kichik guruhlarda faoliyat ko'rsatishi ko'nikmalarini shakllantiradi, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, fikrlarni umumlashtirish va xulosalashga o'rgatadi. Interfaol metodlar o'quvchilarda o'quv materialini o'rganishga qiziqish uyg'otish bilan birga, unda ehtiyojni ham yuzaga keltiradi. Ta'lim samaradorligini oshirishning omili sifatida e'tirof etilayotgan interfaol metodlarni

boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslariga ham tadbiiq etish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'tariladi.

Mustaqil o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari metodikaning vazifalaridan biri mustaqil o'qish uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir. Kitobni targ'ib qilish. Mustaqil o'qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqtivaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

Mustaqil o'qish badiiy matnning lisoniy tahliliga ham e'tiborni kuchaytirish lozim. O'qish dasturining o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablarida ularning ayrim tasvir vositalari va badiiy til elementlarini bilishlari zarurligi qayd etilgan bo'lsa, o'quvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq talablarida "tilning ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish"lariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, o'qish dasturida va darsliklarida badiiy asar tili tahliliga quyidagi talablar qo'yilgan:

– O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

– Olti-etti yoshli bolalarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o'qish darslaridagina emas, balki barcha predmetlar yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berilishi zarur.

– Matn ustida ishlash murakkablashib boradi, bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni - 2020-yil 23- sentabr [1]
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.
4. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2 [2] 14-17
5. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YA PEDAGOGIK MAHORAT Darslik Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009 [3]